

# **“DKZ” AJ “Ma’naviyat va ma’rifat kengashi” NIZOMI**

## **I. Umumiy qoidalar**

Ushbu Nizom korxonada ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni namunali yo‘lga qo‘yish, korxonada ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni namunali tashkil etish, korxonada ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, xodimlarning ijtimoiy kayfiyatini yaxshilash va islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish bo‘yicha samarali va ta’sirchan innovatsion loyihalarni ishlab chiqib, faol ravishda amaliyotga joriy qilish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tartibini belgilaydi.

## **II. Nizomning maqsad va vazifalari**

2.1. Nizomning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- Ishchi-xodimlar o‘rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini korxonada ishchi-xizmatchilariga samarali yetkazish;
- sexlar va bo‘limlarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish va sog‘lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, sexlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;
- «Jaholatga qarshi ma’rifat» g‘oyasi asosida aksiyadorlik jamiyatida uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo‘nalishlari, ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish;
- tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlariga hamda insonparvarlik g‘oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ‘ibot ishlarini olib borish;
- xodimlar o‘rtasida ijtimoiy-ma’naviy hayotida bunyodkorlik g‘oyalarini kuchaytirish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash.
- Sexlar, bo‘limlar va boshqarmalarda Ma’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va ularning faoliyat natijadorligini oshirishga e’tibor qaratish;
- korxonada ma’naviy yangilanish, yangi ma’naviy makonni yaratish, ma’rifatli jamiyat barpo etish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarni targ‘ib etish;
  - jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda Dehqonobod tumani hamda Qashqadaryo viloyati “Ma’naviyat va ma’rifat kengashi”, “O‘z kimyosanoat”AJ bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish;
  - korxonada mehnat jamoalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha yaxlit tizimni shakllantirish;
  - ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va samaradorligini oshirish borasida shakllangan o‘ziga xos tashabbus va tajribalarni keng ommalashtirish;
    - korxonada jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan har qanday ichki va tashqi tahdidlarga qarshi tizimli targ‘ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish;
    - korxonada yoshlarini avlodni har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli hamda

Vataniga sadoqatli etib tarbiyalash;

- korxonada xodimlarining huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy va ijodiy sohalardagi faolligini yanada orttirish;

- korxonada ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni namunali yo'lga qo'yish;

- oila va mahalla, tarixiy xotira, milliy g'urur kabi azaliy qadriyatlar, komil inson tarbiyasi bilan bog'liq ezgu tuyg'u va tushunchalarni yosh avlod qalbi va ongiga ta'sirchan vositalar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari asosida uyg'un holda rivojlantirish bilan bog'liq ishlarni namunali yo'lga qo'ygan korxonada tarkibiy bo'limlarini rag'batlantirish hamda ibrat sifatida ko'rsatish.

2.2. Yuqoridagi vazifalarni Kengash o'z faoliyatining tegishli chora-tadbirlar Dasturlari, yo'l xaritalari orqali amalga oshiradi.

### **III. Kengash faoliyatining asosiy yo'nalishlari**

3.1. Korxonada yoshlar tarbiyasi, yoshlar o'rtasida maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarni zamon talablaridan kelib chiqib, tashkil etish shuningdek, jamiyatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi boshqa illatlarning barcha ko'rinishlariga qarshi keskin va murossasiz munosabatni shakllantirish, jamiyat uchun istiqbolli, zamonaviy targ'ibotchilarni tayyorlash maqsadida soha mutaxassislarini jalb etgan holda quyidagi yo'nalishlarda ish olib boradi:

“Jaholatga qarshi ma'rifat” tamoyilidan kelib chiqqan holda terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta'sirlari, narkobiznes kabi yurtimizning tinchligi va osoyishtaligiga rahna soladigan, xalqimizning iymon-e'tiqodiga zarar yetkazadigan har qanday yot g'oyalarga nisbatan ayovsiz kurashchan muhitni yaratish;

globallashtirish jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'paygan, tahlikali, murakkab vaziyatda ma'naviyat sohasidagi ishlarni yuksak darajada takomillashtirish;

korxonada ishchi-xizmatchilari, ayniqsa, yosh avlodning dunyo va yurtimiz miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatini shakllantirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish;

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi va yil nomlari bilan bog'liq Davlat dasturlari ijrosi bo'yicha eng muhim ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish;

terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta'sirlari, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi g'oyaviy kurashish;

xalqaro maydonda yuz berayotgan muhim voqea-hodisalar, yon-atrofimizda kechayotgan jarayonlar mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, odamlarning faol mushohada yurituvchi va teran idrok etuvchi, ma'nan yetuk, siyosiy jihatdan faol fuqarolarga aylantirishga qaratilgan ma'rifat tizimini yaratish;

tinchlik, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat mohiyatini tushuntirish orqali korxonada xodimlari dunyoqarashida milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish;

fuqarolik jamiyati, huquqiy davlatni rivojlantirish jarayonida barcha ijtimoiy guruh va tabaqalar vakillarining huquqiy ongini yuksaltirish vositasida korxonada xodimlari qalbida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga hurmat hissini kuchaytirish, ayni paytda, o‘zining fuqarolik huquqi, erkinliklari va burchini chuqur anglagan holda yashashi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga ko‘maklashish.

#### **IV. Kengashning huquq va majburiyatlari**

4.1. Kengash quyidagi huquqlarga ega:

- olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilar va xalq ichida o‘z hurmatiga ega bo‘lgan fuqarolardan tashkil topadigan “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati bilan birga, korxonada ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish, jamoat, madaniyat va san’at tashkilotlari, ta’lim-tarbiya muassaslari bilan hamkorlik o‘rnatish, axborot-tahlil ishlarini amalga oshirish;
- korxonadagi barcha sexlar, bo‘limlar, boshqarmalarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar ahvolini o‘rganish, ma’naviy muhitni tahlil etish, muhokama qilish va shu asosda ularga tegishli tavsiyalar berish;
- kengash yig‘ilishlarini tashkil etish va Kengash qarorlarini ijro etish bilan bog‘liq amaliy-tashkiliy ishlarni amalga oshirish;
- ommaviy axborot vositalarida, jahon axborot tarmog‘ida o‘z faoliyatiga doir ma’lumotlarni yoritib borish;
- belgilangan vazifalarni bajarilishini ta’minlash maqsadida korxonada Biznes-rejasida ko‘zda tutilgan mablag‘larini jalb etish;
- ushbu sohani rivojlantirish maqsadida qonunlarda belgilangan tartibda jahon axborot tarmog‘idagi veb-sahifalariga ega bo‘lish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni ham amalga oshirishi mumkin.

4.2. Kengashning majburiyatlari:

- o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga, mazkur Nizomga muvofiq amalga oshirish;
- o‘z faoliyati yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda “O‘z kimyosanoat” AJ Ma’naviyat va ma’rifat markaziga hamda hududiy Kengash raislariga hisobotlar taqdim etish;

Kengash qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

#### **V. Kengashning rahbar organi, vakolatlari va tuzilishi**

5.1. Kengashning rahbar organi “DKZ” AJ boshqaruvi va “O‘z kimyosanoat”AJ Ma’naviyat va ma’rifat kengashi hisoblanadi.

5.2. Kengash yig‘ilishlari bir yilda ikki marotaba o‘tkaziladi. Mazkur yig‘ilishda korxonadagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ahvoli tahlil qilinib, tegishli qarorlar qabul qilinadi.

5.3. Kengashning rahbar organi vakolatlari:

Kengashning umumiy faoliyatiga rahbarlik qilish.

Kengashning chora - tadbirlar dasturi va ish rejalarini tasdiqlash.

Kengash hisobotlarini qabul qilish va tahlil qilish.

Kengashning Nizomida belgilangan maqsad va vazifalariga zid bo‘lgan qarorlar ijrosini to‘xtatib qo‘yish yoki ularni bekor qilish.

Kengash vakolatlari:

korxonada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, sohadagi ahvolni o'rganish, ma'naviy muhitni tahlil etish, muhokama qilish va shu asosda mas'ullarga tegishli tavsiyalar berish;

korxonada ma'naviy-ma'rifiy ishlar ahvolini yaxshilash, bu borada chora-tadbirlar belgilash, ularni amalga oshirish va nazorat qilish;

5.4. Kengash rahbari vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Korxonada kengashi umumiy faoliyatini muvofiqlashtirish, tashkil etish va boshqarish;

-kengash ishini tashkil etish, faoliyat yo'nalishlarini belgilash, qo'yilgan vazifalarning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish;

- kengashning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, xodimlarning moddiy rag'batlantirish chora-tadbirlarini ko'rish;

- jamoatchi targ'ibotchilarni tanlash, belgilangan vazifalarni amalga oshirish jaryoniga jalb etish, risola va qo'llanmalar, shuningdek, yangi zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, rag'batlantirish masalalarini hal etish;

ma'naviy-ma'rifiy ishlarda alohida o'rnak ko'rsatgan kengash va korxonada xodimlari, o'z faxriy yorliqlari va pul mukofotlari bilan taqdirlash;

## **VI. Nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tartibi**

6.1. Ushbu Nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish Kengash qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

## **VII. Kengashda hisobot ishi**

7.1. Kengash belgilangan tartibda "O'z kimyosanoat" AJga har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar tasdiqlangan ish rejaning bajarilishi yuzasidan hisobot berib boradi.